Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 347-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish……254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati……261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash……274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida……283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari……290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash……297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari……307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Guliston davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., PhD
E-mail: olimyusufaliyev85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘sish, aholi bandligini ta’minlash, daromadlarni oshirish va turmush sifatini yaxshilashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik samaradorligini baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional ko‘rsatkichlardan kompleks foydalanish zarurati asoslangan. Aholi farovonligi va tadbirkorlik faoliyati natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavjud baholash usullarini takomillashtirish hamda tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.
Kalit so‘zlar: aholi farovonligi, tadbirkorlik faoliyati, samaradorlikni baholash, metodologiya, iqtisodiy o‘sish, aholi daromadlari, bandlik, turmush sifati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, kompleks baholash.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и методологические основы оценки эффективности предпринимательской деятельности в повышении благосостояния населения. Раскрывается роль предпринимательства в обеспечении экономического роста, занятости населения, увеличении доходов и повышении качества жизни. Обосновывается необходимость комплексного использования экономических, социальных и институциональных показателей при оценке эффективности предпринимательской деятельности. Особое внимание уделяется выявлению взаимосвязи между благосостоянием населения и результатами предпринимательской деятельности, совершенствованию существующих методов оценки, а также разработке методологических подходов, направленных на повышение социально-экономической эффективности предпринимательства.
Ключевые слова: благосостояние населения, предпринимательская деятельность, оценка эффективности, методология, экономический рост, доходы населения, занятость, качество жизни, социально-экономическое развитие, комплексная оценка.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the effectiveness of entrepreneurial activity in enhancing public welfare. It highlights the role of entrepreneurship in economic growth, employment generation, increasing household incomes, and improving quality of life. Furthermore, the study substantiates the need for a comprehensive approach to assessing entrepreneurial performance through the combined use of economic, social, and institutional indicators. Particular attention is paid to identifying the relationship between public welfare and the outcomes of entrepreneurial activity, improving existing assessment methods, and developing methodological approaches aimed at enhancing the socio-economic effectiveness of entrepreneurship.
Keywords: public welfare, entrepreneurial activity, performance assessment, methodology, economic growth, household income, employment, quality of life, socio-economic development, comprehensive assessment.

KIRISH

Bugungi kunda aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta’minlash va daromadlar barqarorligini mustahkamlashda tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyati yangi ish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

o‘rinlarini yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois tadbirkorlik samaradorligini baholashda nafaqat iqtisodiy natijalar, balki uning aholi turmush darajasi va sifatiga ta’sirini ham hisobga olish zarur. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini an’anaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholash uning ijtimoiy natijalarini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi kompleks metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashning mavjud yondashuvlarini takomillashtirish va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalarini kompleks baholash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyati va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlik xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. J. Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlagan. Uning yondashuviga ko‘ra, yangi mahsulotlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarining joriy etilishi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. I. Kirzner esa tadbirkorlikning bozor imkoniyatlarini aniqlash, ulardan samarali foydalanish va raqobatni rivojlantirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratgan. A.Senning ilmiy qarashlarida farovonlik faqat daromad bilan emas, balki insonning munosib hayot kechirishi va o‘z imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Ushbu yondashuv tadbirkorlik samaradorligini baholashda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda bandlik, daromadlar va turmush sifatini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sishga ta’siri har doim ham inson taraqqiyotiga avtomatik ravishda olib kelmasligi haqidagi ilmiy yondashuvlar samaradorlikni kompleks baholash muhimligini asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlari, bandligi va turmush farovonligini oshirishdagi o‘rni o‘rganilgan. Olimjon Yusufaliyev tadqiqotlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati hamda ushbu yo‘nalishda xorijiy tajribadan foydalanish masalalari yoritilgan. Muallif tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatiga e’tibor qaratadi. D. I. Iskandarovaning tadqiqotida O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning aholi turmush farovonligi va daromadlarini oshirishga ta’siri tahlil qilingan. Muallif kichik va o‘rta biznesning bandlikni ta’minlash hamda aholi daromadlarini oshirishdagi rolini hududiy ma’lumotlar asosida o‘rgangan. O‘rganilgan ilmiy yondashuvlar tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik samaradorligini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan aholi farovonligi mezonlarini yagona metodologik tizimda birlashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur

maqolada ushbu yo‘nalishdagi metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga e’tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligi aholi daromadlari, bandlik darajasi va turmush farovonligiga ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash orqali tadbirkorlik samaradorligini aniqlash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va hududlarda mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati faqat ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, olingan foyda hamda yaratilgan qo‘shilgan qiymat bilan cheklanmaydi. Uning haqiqiy samaradorligi tadbirkorlik natijalarining aholi turmush darajasiga ta’siri, bandlikning barqarorligi, daromadlarning o‘sishi, kambag‘allikning qisqarishi va iqtisodiy imkoniyatlarning aholi qatlamlari o‘rtasida qanchalik keng taqsimlanishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashda iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda ijtimoiy natijalarni ham hisobga oladigan yaxlit metodologik yondashuvni shakllantirish zarur.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rnini tahlil qilish mazkur yo‘nalishning aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyatini ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015-yilda 64,6 foizni, 2020-yilda 56,7 foizni, 2023-yilda 53,8 foizni va 2024-yilda 53,5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallab kelayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining pasayishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faqat umumiy iqtisodiy ulush orqali baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mazkur o‘zgarishni tadbirkorlikning mutlaq ishlab chiqarish hajmi yoki samaradorligi pasayganining bevosita isboti sifatida talqin qilish ham to‘g‘ri emas, chunki ushbu ulush boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sish sur’atlari va tarkibiy o‘zgarishlariga ham bog‘liq. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatini baholashda uning iqtisodiyotdagi ulushi bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, foydalilik, yaratilgan ish o‘rinlari, ish haqi va aholi daromadlariga qo‘shgan hissasini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatining aholi farovonligiga ta’sirini aniqlashda uy xo‘jaliklari daromadlari tarkibidagi o‘zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik tadbirkorlikdan olingan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

daromadlarning aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 2011-yilda 62,8 foizni, 2017-yilda 68,5 foizni, 2020-yilda 62,6 foizni, 2023-yilda 58,6 foizni va 2024-yilda 58,9 foizni tashkil etgan. Keltirilgan ma'lumotlar kichik tadbirkorlik daromadlarining aholi umumiy daromadlari shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. 2023–2024-yillarda ushbu ko'rsatkichning 0,3 foiz bandga ortishi tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushida ijobiy o'zgarish kuzatilganini anglatadi. Biroq uzoqroq davr kesimida ko'rsatkichning o'zgarib borishi tadbirkorlik daromadlarining barqarorligini ta'minlash, ularning mehnat daromadlari bilan uyg'un rivojlanishi va turli hududlarda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan tadbirkorlik samaradorligini baholashda daromadlarning umumiy hajmi bilan birga ularning real xarid qobiliyatiga ta'siri, muntazamligi va aholi guruhlari o'rtasidagi taqsimlanishini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Aholi farovonligini baholashda daromadlarning nominal o'sishi bilan real o'sishini farqlash ham muhim metodologik talab hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ko'paygan taqdirda ham narxlar darajasining oshishi natijasida aholining xarid qobiliyati kutilgan darajada yaxshilanmasligi mumkin. Shu sababli tadbirkorlik samaradorligining ijtimoiy natijalarini aniqlashda aholi jon boshiga real daromad, iste'mol xarajatlari, bandlik darajasi va kambag'allik ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish lozim. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 2-fevraldagi axborotida 2024-yil yakunida mamlakatda kambag'allik darajasi 8,9 foizni tashkil etgani, aholining real daromadlari esa yil davomida 10,7 foizga o'sgani qayd etilgan. Shuningdek, tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar aholi umumiy daromadlarining 22,9 foizini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy faollik va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq ushbu natijalarni faqat tadbirkorlik faoliyatining ta'siri bilan izohlash mumkin emas, chunki aholi daromadlari va kambag'allik darajasiga ish haqi, ijtimoiy transfertlar, qishloq xo'jaligi daromadlari hamda boshqa iqtisodiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois takomillashtirilgan baholash metodologiyasida tadbirkorlikning bevosita natijalari bilan bir qatorda boshqa ta'sir etuvchi omillarni ham hisobga olish talab etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini faqat korxonaning iqtisodiy natijalari asosida baholash uning ijtimoiy ahamiyatini to'liq ochib bermaydi. Masalan, yuqori foyda olayotgan korxona kam sonli xodimlar bilan faoliyat yuritishi, yaratilgan qo'shilgan qiymatning katta qismi esa cheklangan doiradagi iqtisodiy subyektlar daromadida jamlanishi mumkin. Boshqa tomondan, nisbatan kichik foyda bilan faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyekti mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, oilaviy daromadlarni shakllantirish, ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish hamda mahalliy xizmatlar bozorini rivojlantirishda katta ijtimoiy natija berishi mumkin. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatini baholashda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy natijadorlikni alohida aniqlash hamda ularning o'zaro bog'liqligini

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar orqali ifodalash zarur. Mazkur yondashuv iqtisodiy natijalari yuqori, biroq aholi farovonligiga ta’siri cheklangan faoliyat bilan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muvozanatli natijaga erishayotgan tadbirkorlik subyektlarini farqlash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi ko‘p mezonli baholash tizimini shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. Taklif etilayotgan yondashuvda baholash ko‘rsatkichlarini iqtisodiy samaradorlik, bandlik va mehnat natijalari, aholi daromadlari, ijtimoiy barqarorlik hamda hududiy rivojlanish guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy samaradorlik guruhi tadbirkorlik subyektlarining tushumi, foydasi, rentabelligi, mehnat unumdorligi va investitsiyalardan foydalanish natijalarini qamrab oladi. Bandlik va mehnat natijalari guruhi yaratilgan yangi ish o‘rinlari, ish bilan bandlikning barqarorligi, xodimlar ish haqi va mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi. Aholi daromadlari guruhi tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar, aholi jon boshiga real daromadlarning o‘sishi va daromadlarning barqarorligini baholashga xizmat qiladi. Ijtimoiy barqarorlik guruhi kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy jihatdan zaif aholi qatlamlarini bandlikka jalb etish va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasini tavsiflaydi. Hududiy rivojlanish guruhi esa tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, mahalliy resurslardan foydalanish va iqtisodiy faollikning hududiy tafovutlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirish uchun dastlab ularning o‘lchov birliklarini muvofiqlashtirish, keyinchalik esa har bir indikatorning umumiy samaradorlikka ta’sirini belgilash talab etiladi. Chunki foyda va daromad pul birligida, rentabellik va bandlik ulushlari foizlarda, ish o‘rinlari esa miqdoriy birliklarda ifodalanadi. Ularni dastlabki qiymatlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shish yoki o‘zaro taqqoslash ilmiy jihatdan asosli natija bermaydi. Shu sababli indikatorlarni yagona o‘lchovsiz shkalaga keltirish, ularning ijobiy yoki salbiy yo‘nalishini aniqlash va vazn koeffitsiyentlarini belgilash asosida integral baholash ko‘rsatkichini shakllantirish taklif etiladi. Bunda yuqori qiymati ijobiy natijani ifodalovchi ko‘rsatkichlar, masalan, mehnat unumdorligi va real daromadlar o‘sishi, hamda yuqori qiymati salbiy holatni anglatadigan ko‘rsatkichlar, masalan, ishsizlik yoki kambag‘allik darajasi, alohida tartibda standartlashtirilishi lozim.

Integral ko‘rsatkichni shakllantirishda indikatorlarning vaznini belgilash masalasi alohida ahamiyatga ega. Barcha ko‘rsatkichlarga bir xil vazn berish hisoblashni soddalashtiradi, biroq ayrim indikatorlarning aholi farovonligiga ta’siri boshqalariga nisbatan kuchliroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli vaznlarni belgilashda ekspert baholash, statistik ma’lumotlar asosidagi dispersiya tahlili yoki asosiy komponentlar usulidan foydalanish mumkin. Ekspert baholash iqtisodiy va ijtimoiy ustuvorliklarni hisobga olish imkonini bersa, statistik usullar ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlanish darajasi va axborot mazmunini aniqlashga yordam beradi. Bunda vaznlarni tanlashning asoslanganligi va yakuniy

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

natijalarning vazn o‘zgarishiga sezgirligi tekshirilishi kerak. Ushbu talab integral ko‘rsatkichning subyektiv qarorlarga haddan tashqari bog‘lanib qolishining oldini oladi hamda baholash natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Taklif etilayotgan metodologiyaning keyingi bosqichi tadbirkorlik faoliyati natijalari bilan aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik va ekonometrik usullar yordamida tekshirishdan iborat. Bunda natijaviy ko‘rsatkich sifatida aholi jon boshiga real daromad yoki farovonlikni ifodalovchi kompleks indeks tanlanishi, tushuntiruvchi omillar sifatida esa tadbirkorlik subyektlari soni, kichik biznesda band bo‘lganlar ulushi, mehnat unumdorligi, investitsiyalar hajmi, tadbirkorlikdan olingan daromadlar va hududiy infratuzilma ko‘rsatkichlaridan foydalanilishi mumkin. Agar tahlil hududlar kesimida amalga oshirilsa, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, aholi soni va boshlang‘ich rivojlanish darajasidagi farqlar ham hisobga olinishi zarur. Ekonometrik tahlil natijalari tadbirkorlikning qaysi omillari aholi farovonligi bilan kuchliroq bog‘langanini aniqlash, ularning ta’sir yo‘nalishini baholash va boshqa omillarni nazorat qilish imkonini beradi. Biroq korrelyatsiya yoki regressiya natijalarining o‘zi sabab-oqibat munosabatini to‘liq isbotlamasligi sababli, yakuniy xulosalar modelning statistik sifati, ma’lumotlar qamrovi va qo‘llanilgan baholash usuliga muvofiq talqin qilinishi lozim.

Takomillashtirilgan baholash metodologiyasining amaliy ahamiyati tadbirkorlik subyektlarini faqat erishilgan iqtisodiy natijalar bo‘yicha emas, balki ushbu natijalarning aholi farovonligiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha ham taqqoslash imkoniyatini yaratishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, integral ko‘rsatkichlar asosida hududlar va tadbirkorlik yo‘nalishlarini yuqori, o‘rta va past samaradorlik guruhlariga ajratish, rivojlanishi sust bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash hamda davlat ko‘magini ehtiyoj va natijadorlik asosida taqsimlash mumkin. Bunda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega, lekin bandlik yoki aholi daromadlariga qo‘shgan hissasi cheklangan faoliyat yo‘nalishlari uchun qo‘shimcha ijtimoiy natijalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, iqtisodiy va ijtimoiy natijalari birgalikda yuqori bo‘lgan subyektlarning tajribasini esa boshqa hududlarda kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, baholash natijalarini muntazam yangilab borish tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligini monitoring qilish, mavjud resurslardan foydalanish natijalarini taqqoslash va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashda iqtisodiy va ijtimoiy indikatorlarni birlashtirish, ko‘rsatkichlarni standartlashtirish, ularning vaznlarini ilmiy asoslash va integral indeksni statistik tekshirishga asoslangan metodologik yondashuv taklif etiladi. Ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, u tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy natijalarini aholi farovonligidagi o‘zgarishlardan ajratib qo‘ymaydi, aksincha, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks baholashga imkon beradi. Biroq integral indeksning amaliy samaradorligini to‘liq asoslash uchun uning indikatorlari, vazn koeffitsiyentlari va hisoblangan qiymatlarini rasmiy statistik

ma'lumotlar asosida aniqlash, natijalarni hududlar hamda davrlar kesimida taqqoslash talab etiladi. Shu ma'noda, mazkur metodologiya tadbirkorlik siyosatining natijadorligini baholashni takomillashtirish, iqtisodiy resurslarni samarali yo'naltirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini asoslash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini kompleks baholash ko'rsatkichlari tizimi

Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholash maqsadi
Iqtisodiy samaradorlik	Tadbirkorlik subyektlarining foydasi, rentabelligi, mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat	Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy natijadorligini aniqlash
Bandlik va mehnat	Yaratilgan yangi ish o'rinlari, bandlikning barqarorligi, o'rtacha ish haqi	Aholining daromad topish imkoniyatlari va mehnat faolligini baholash
Aholi daromadlari	Aholi jon boshiga real daromadlar, tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar, daromadlar o'sish sur'ati	Tadbirkorlikning aholi moddiy farovonligiga ta'sirini aniqlash
Ijtimoiy barqarorlik	Kambag'allik darajasi, yoshlar va xotin-qizlar bandligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning iqtisodiy faolligi	Tadbirkorlikning ijtimoiy natijalarini baholash
Hududiy rivojlanish	Hududlar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari soni, investitsiyalar hajmi, iqtisodiy faollikdagi tafovutlar	Tadbirkorlik imkoniyatlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishini aniqlash

Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar tadbirkorlik faoliyati samaradorligini iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy jihatlardan birgalikda baholash imkonini beradi. Taklif etilayotgan yondashuvda har bir yo'nalish bo'yicha indikatorlar dastlab yagona o'lchovsiz shkalaga keltiriladi, so'ngra ularning aholi farovonligiga ta'sirini hisobga oluvchi vazn koeffitsiyentlari asosida umumlashtiriladi. Bunda foyda, mehnat unumdorligi va real daromadlarning o'sishi kabi ijobiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda kambag'allik darajasi va hududiy tafovutlar kabi salbiy ko'rsatkichlarning ham hisobga olinishi kompleks baholashning ishonchliligini oshiradi. Natijada tadbirkorlik subyektlari va hududlarning samaradorligini taqqoslash, mavjud muammolarni aniqlash hamda aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun metodologik asos shakllanadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

2-jadval

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini kompleks baholash natijalarini aholi farovonligini oshirish mexanizmlari bilan bog‘lash yo‘nalishlari

Baholash natijasi	Aniqlanadigan muammo	Takomillashtirish mexanizmi	Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natija
Iqtisodiy samaradorlikning pastligi	Foydalilik va mehnat unumdorligining yetarli emasligi	Innovatsiyalarni joriy etish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tadbirkorlarning boshqaruv salohiyatini oshirish	Korxonalar rentabelligi va mehnat unumdorligining oshishi
Yangi ish o‘rinlari yaratilishining sustligi	Tadbirkorlik faoliyatining bandlikka ta’siri cheklanganligi	Mehnat talab qiluvchi faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirish	Bandlik imkoniyatlarining kengayishi va ishsizlikning qisqarishi
Aholi real daromadlarining past o‘sishi	Daromadlarning narxlar o‘sishiga nisbatan sekin ortishi	Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va mehnat unumdorligini oshirish	Aholining xarid qobiliyati va moddiy farovonligining yaxshilanishi
Ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy faolligi pastligi	Yoshlar, xotin-qizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun imkoniyatlarning cheklanganligi	Imtiyozli moliyalashtirish, kasbiy tayyorlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish	Iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish ko‘lamining kengayishi
Hududlar o‘rtasidagi tafovutlarning yuqoriligi	Kapital, infratuzilma va tadbirkorlik imkoniyatlarining notekis taqsimlanishi	Hududiy salohiyatga mos investitsiya dasturlari va mahalliy biznes infratuzilmasini rivojlantirish	Hududlararo iqtisodiy tafovutlarning qisqarishi
Tadbirkorlik natijalarining beqarorligi	Bozor xatarlari, moliyaviy resurslar yetishmasligi va boshqaruvdagi kamchiliklar	Moliyaviy maslahat, risklarni boshqarish, raqamli xizmatlar va bozor axborotidan foydalanishni kengaytirish	Tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi va aholi daromadlarining muntazamligi

Jadval ma’lumotlari tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash natijalarini amaliy boshqaruv qarorlari bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Birinchi jadvalda samaradorlikni aniqlash uchun foydalaniladigan iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirilgan bo‘lsa, mazkur jadvalda aniqlangan muammolarni bartaraf etish mexanizmlari va ularning aholi farovonligiga kutilayotgan ta’siri yoritilgan. Bunday yondashuv baholash

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

jarayonini oddiy statistik kuzatuv darajasidan rivojlanish ustuvorliklarini belgilash va resurslarni maqsadli yo‘naltirish vositasiga aylantiradi.

Taklif etilayotgan metodologiyaning muhim jihati shundaki, u barcha tadbirkorlik subyektlariga bir xil choralarni qo‘llash o‘rniga, aniqlangan muammolarning xususiyatiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuvni nazarda tutadi. Masalan, iqtisodiy samaradorligi yuqori, biroq bandlikka hissasi past bo‘lgan subyektlar uchun mehnat unumdorligini saqlagan holda yangi ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirish, daromadlar o‘sishi sust bo‘lgan hududlarda esa yuqori qo‘shilgan qiymatli faoliyat turlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi mumkin. Natijada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari nafaqat korxonalarning iqtisodiy natijalarini yaxshilashga, balki ushbu natijalarning aholi turmush darajasida namoyon bo‘lishiga ham yo‘naltiriladi.

Shunday qilib, ikkala jadvalni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni tashxislash, tegishli rivojlantirish mexanizmlarini tanlash va erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni qayta baholashni qamrab oluvchi uzluksiz metodologik yondashuvni shakllantiradi. Keltirilgan natijalar kutilayotgan ta’sirlarni ifodalaydi; ularning amaliy samaradorligi esa tegishli statistik ma’lumotlar va empirik hisob-kitoblar asosida tekshirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyati natijalarini aholi real daromadlari, bandlikning barqarorligi, kambag‘allikni qisqartirish va hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish bilan uzviy bog‘liq holda baholash zarur.

Tadqiqot natijalari asosida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni yagona tizimda birlashtirish taklif etildi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy natijalarini baholash bilan bir qatorda, yaratilgan iqtisodiy qiymatning aholi farovonligiga ta’sirini ham aniqlashga imkon beradi. Bunda tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi beshta asosiy yo‘nalish, ya’ni iqtisodiy samaradorlik, bandlik va mehnat natijalari, aholi daromadlari, ijtimoiy barqarorlik hamda hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida baholanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Tadqiqotning muhim metodologik natijasi turli o‘lchov birliklarida ifodalangan indikatorlarni standartlashtirish, ularning ahamiyatini vazn koeffitsiyentlari orqali belgilash va integral ko‘rsatkich asosida umumlashtirishga asoslangan kompleks baholash yondashuvining ishlab chiqilganidir. Ushbu yondashuv tadbirkorlik faoliyatining turli yo‘nalishlari va hududlar kesimida taqqoslanadigan natijalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda indikatorlarning vaznlarini ekspert baholash yoki statistik usullar yordamida

aniqlash, olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish hamda yakuniy bahoning tanlangan ko‘rsatkichlarga sezgirligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholashda iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni birgalikda hisobga oluvchi kompleks indikatorlar tizimini amaliyotga joriy etish lozim. Bunda foyda, rentabellik va mehnat unumdorligi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar aholi real daromadlari, bandlik darajasi, yaratilgan ish o‘rinlarining barqarorligi va kambag‘allik ko‘rsatkichlari bilan to‘ldirilishi kerak. Bu tadbirkorlik faoliyatining natijalarini aholi turmush darajasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlash uchun hududlar kesimida integral baholash tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mehnat resurslari, infratuzilma bilan ta’minlanganligi va tadbirkorlik imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. Hududiy baholash natijalari iqtisodiy faolligi nisbatan past bo‘lgan hududlarni aniqlash, investitsiyalarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini hududlarning real ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar bilan bog‘lash zarur. Xususan, moliyaviy yordam, imtiyozli kreditlar va boshqa rag‘batlantirish vositalarining samaradorligini baholashda nafaqat korxonalarning moliyaviy natijalari, balki yangi ish o‘rinlari yaratilishi, ish haqi va mehnat unumdorligining o‘sishi, xodimlar bandligining barqarorligi kabi mezonlardan ham foydalanish lozim. Bunda qo‘llab-quvvatlash natijalarini baholashda korxonalarning boshlang‘ich sharoitlari va faoliyat yuritayotgan tarmog‘i o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish talab etiladi.

To‘rtinchidan, tadbirkorlik faoliyati va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq aniqlash maqsadida statistik hamda ekonometrik tahlil usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda tadbirkorlik subyektlari soni, bandlik, investitsiyalar, mehnat unumdorligi va tadbirkorlik daromadlarining aholi jon boshiga real daromadlar bilan bog‘liqligini o‘rganish mumkin. Mazkur tahlil natijalari iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi. Shu bilan birga, ishonchli xulosalar chiqarish uchun yetarli davriy va hududiy ma’lumotlardan foydalanish hamda boshqa ta’sir etuvchi omillarni nazorat qilish zarur.

Beshinchidan, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini muntazam monitoring qilish va natijalarni baholash tizimini takomillashtirish lozim. Buning uchun iqtisodiy va ijtimoiy indikatorlarni muntazam yangilab borish, hududlar va faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqqoslama tahlillarni amalga oshirish hamda baholash natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday tizim tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning natijadorligini aniqlash, samarasiz yo‘nalishlarni qayta ko‘rib

chiqish va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Oltinchidan, tadbirkorlik faoliyatining aholi farovonligiga ta'sirini oshirish uchun yoshlar, xotin-qizlar va iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlarining tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishini qo'llab-quvvatlash zarur. Bunda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, kasbiy tayyorgarlik, biznesni boshqarish ko'nikmalari, raqamli savodxonlik va bozor axborotidan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish iqtisodiy natijalar bilan ijtimoiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli ravishda aniqlashni talab etadi. Taklif etilgan kompleks baholash yondashuvi tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, bandlikka qo'shgan hissasi, aholi daromadlariga ta'siri va hududiy rivojlanishdagi rolini birgalikda o'rganish uchun metodologik asos yaratadi. Ushbu yondashuvni rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amaliy sinovdan o'tkazish va natijalarini muntazam monitoring qilish tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining dalillarga asoslanganligini oshirish, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash hamda aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan qarorlarning natijadorligini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent: Sharq, 2002. – 365 b.

2. G'oyibnazarov B., Rahmonov H., Otajonov Sh., Almatova D. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili: monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 184 b.

3. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J. va boshq. Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 274 b.

4. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

5. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.

6. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999. – 366 p.

7. Storey D.J. Understanding the Small Business Sector. – London: Routledge, 1994. – 355 p.

8. OECD. How's Life? Measuring Well-being. – Paris: OECD Publishing, 2011. – 284 p. – DOI: https://doi.org/10.1787/9789264121164-en.

9. Beegle K., Hentschel J., Rama M. World Development Report 2013: Jobs. – Washington, DC: World Bank, 2012. – DOI: https://doi.org/10.1596/978-0-8213-9575-2.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy